

“TASDIQLAYMAN”

Gidrometeorologiya xizmati agentligi
direktori



____ Sh.Khabibullayev

**O‘zgidromet tarkibiy boshqarmalari va mustaqil bo‘lim boshliqlari hamda
hududiy gidrometeorologiya markazlari boshliqlari ishtirokidagi kengash
yig‘ilishining 1-son**

B A Y O N I

2025-yil 9-aprel

Toshkent shahri

Raislik qildi: Sh.Khabibullayev – O‘zgidromet direktori.

Qatnashdilar: Direktor maslahatchilari, markaziy apparatning boshqarma,
bo‘lim boshliqlari va mas‘ul xodimlari, Meteoinfokom,
(ro‘yxat bo‘yicha),

KUN TARTIBI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi qaror hamda farmonlari, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi hamda O‘zgidromet buyruq va farmoyishlari ijrosi yuzasida;
2. O‘zgidrometning 2025-yil uchun ixtisoslashtirilgan gidrometerologik xizmatlarni ko‘rsatish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar va ularning holati;
3. O‘zgidrometning 2025-yil uchun belgilangan samaradorlik ko‘rsatkichlariga (KPI) erishishning bajarilish holati yuzasidan;
4. 2025-yilgi toshqin suvlari va sel oqimlarini xavf-xatarsiz o‘tkazib olishni tashkil etish masalalari;
5. Hududlarda o‘rnatilgan atmosfera havosi ifloslanishi monitoringi stansiyalari (HORIZA) faoliyatini samarali tashkil etish masalalari;
6. Boshqa ishlab chiqarish masalalari.

(Sh.Khabibullayev... Sh.Khabibullayev)

So‘nggi yillarda gidrometeorologiya sohasini rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va aholini gidrometeorologik ma‘lumotlar bilan ta‘minlash tizimini yanada takomillashtirishga **shaxsan Muhtaram Prezidentimiz** tomonidan alohida e‘tibor qaratib kelinmoqda.

Xususan, o‘tgan davr mobaynida gidrometeorologiya sohasini tartibga solish bo‘yicha Vazirlar Mahkamasining **8 ta** qarorlari va **1 ta** farmoyishi va eng muhimi “Gidrometeorologiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi.

Ushbu qabul qilingan qarorlar natijasida sohada kuzatuv tarmoqlarining kengayishi, avtomatalashtirilgan zamonaviy o'lchash uskunalari bilan jihozlash va ilg'or dasturiy ta'minotlardan foydalanish darajasi **83 foizni (ilgari 17%)** tashkil etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qaroriga muvofiq Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari hududini to'liq qamrab olish, tog' va tog'oldi hududlarda xavfli gidrometeorologik hodisalarni **(momaqalldiroq, do'l, kuchli yomg'irlar)** prognozlash va sodir bo'lishi xavfi yuqori bo'lgan zonalarini aniqlash maqsadida Termiz tumanida yangi meteorologik radiolokator tarmog'i tashkil etildi.

Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlangan dasturga asosan o'tgan **2024 yilda** respublikaning **9 ta** hududida suv resurslarining holatini onlayn monitoring qilish va toshqinlar, sel oqimlari haqida **barvaqt ogohlantirish** tizimini takomillashtirish maqsadida **52 ta** gidrologik kuzatuv punktlari **73 ta** avtomatik o'lchash uskunalari bilan jihozlandi.

2025 yil I chorak yakuni bo'yicha hududiy gidrometeorologiya markazlari tomonidan jami **885,9 mln.so'mlik** shartnomalar tuzilib, tushumlar amalga oshirildi.

Xususan, joriy yil **I chorak** bo'yicha **Sirdaryo, Andijon** va **Surxondaryo** viloyatlari gidrometeorologiya markazlari tomonidan belgilab berilgan rejaga nisbatan **eng kam ko'rsatgichlar** qayd etildi.

2020-2024 yillarda respublika bo'ylab **617 ta (2020 yil – 119 ta; 2021 yil – 134 ta; 2022 yil – 170 ta va 2023 yil – 47 ta)** sel va suv toshqinlari kuzatilgan. **2020-2024 yillarda** eng ko'p sel-suv toshqinlari **Surxondaryo** viloyati hududida to'g'ri kelgan bo'lib, sel-suv toshqinlari umumiy soni **262 tani (2024 yil 62 ta)** tashkil qilgan.

O'rganib chiqish natijalariga ko'ra, **2025 yil** holatiga, Respublikaning sel-suv toshqini xavfi mavjud hududda joylashgan **3 025 ta** aholi xo'jaliklari, **16 016 ta** aholi hamda **162 ta** texnik obyektlar **sel-suv toshqini xavfiga moyilligi aniqlandi**.

Kun tartibidagi masalalarni atroflicha muhokama qilib, yig'ilish

QAROR QILADI:

1. 2025-yil 1-chorak davomida belgilangan rejaga muvofiq tushumlarni 20 foizidan kamaytirib yuborgan Buxoro, Farg'ona, Surxondaryo, Sirdaryo, Andijon viloyati gidrometeorologiya markazlari rahbarlarining 1-chorak rag'batlantirish pullari ushlab qolinsin.

2. Aviatsiyani meteorologik ta'minlash boshqarmasi **(A.Zaynidinova)**, Gidrometeorologik kuzatuvlar va atrof-muhit sifati monitoringi boshqarmasi **A.Mavlyanov 1 hafta muddatda** Aviatsiyani meteorologik stansiyalarida faoliyat yurituvchi barcha xodimlarni ish yuritish vazifalarini va xodimlarga zaruratni o'rganib chiqqan holda 10 foizdan *(joylarga ko'ra)* 50 foizgacha xodimlarini qisqartirish va shtatlarni ko'chirish maqsadida rahbariyatga tegishli taklif kiritсин.

3. Bosh yuriskonsult **S.Isxakova** Aviatsiyani meteorologik stansiyalarida ishlovchi xodimlarni optimallashtirish, xizmat vazifalarini ko'rib chiqish hamda shtatlarni muvofiqlashtirish maqsadida komissiya tuzish bo'yicha buyruq loyihasini rahbariyatga kiritsin.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2025 — 2027-yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 24-dekabrda PQ-454-son qarori bilan belgilangan Qo'qon, Shahrisabz, Sariosiyo aerodromi hududlarida aviatsiya meteorologiya stansiyalarini modernizatsiya qilish, avtomatlashtirilgan aviatsiya meteorologiya stansiyasi bilan jihozlash topshirig'i ijrosi bo'yicha yuqoridagi hududlar xodimlari mas'uliyat bilan yondashishlari va topshiriqlar ijrosini sifatli bajarishlari belgilab qo'yilsin.

5. Har oyda hududiy markazlar rahbarlari tizimdagi temir daftarga kiruvchi, boquvchisini yoqotgan, kam ta'minlangan xodimlar, undan tashqari hududlardagi fuqarolarni holida xabar olish amaliyoti yo'lga qo'yilsin.

6. Sonli modellarni rivojlantirish va mintaqaviy ixtisoslashtirilgan meteorologiya ta'minoti boshqarmasi Sonli modellarni rivojlantirish bo'limi 1-toifali muhandis **M.Ro'zmetova**, Sonli modellarni rivojlantirish bo'limi (**Sh.Ibragimova**) markaziy apparatda tashkil etilayotgan treninglar, safarlar, turli hil sport musobaqalari hududiy markazlarda ham tashkil etish bo'yicha reja-grafik tuzgan holda joylarga chiqish vazifasi yuklansin.

7. Sonli modellarni rivojlantirish bo'limi (**Sh.Ibragimova**), Gidrometeorologik kuzatuvlar va atrof-muhit sifati monitoringi boshqarmasi **A.Mavliyanov** hududiy markazlarda ishlovchi xodimlarning farzandlarini to'liq yozgi lagerlarga qamrab olish va yozgi ta'tilni maroqli o'tkazishlarini nazorat qilsin.

8. Ushbu yig'ilish qarorida belgilangan vazifalar ijrosini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.